

AVLONIY ASARLARI – PEDAGOGLARGA DASTURIL AMAL YOHUD TA'LIM-TARBIYANING O'RNI

Yusupova Sarvinoz Mirzo qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti
“Biologiya o’qitish metodikasi” 3- bosqich talabasi

Anotatsiya. Jamiyatning qay darajada yuksalishi o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga hamisha bog'liq bo'lgan. Ta'lim-tarbiyaning shakllanishida esa, albatta muallimning o'rni beqiyosdir. Abdulla Avloniy o'z asarlarida esa aynan mana shu masalaga alohida e'tibor qaratadi va pedagoglarning vazifasi haqida o'zining qarashlarini bayon etadi.

Annotation. The extent to which society has risen has always depended on the educational upbringing of the younger generation. And the role of the teacher in the formation of education is invaluable. In his works, Abdullah Avloni pays special attention to this issue and expresses his views on the role of teachers.

Аннотация. Степень подъема общества всегда зависела от образовательного воспитания подрастающего поколения. И роль учителя в формировании образования неопределима. В своих работах Абдулла Авлони уделяет этому вопросу особое внимание и высказывает свое мнение о роли учителей.

Bugun shu ulug' zaminda tinch va totuv yashab turgan ekanmiz, bir lahza bo'lsada bizga berilgan bu ne'matlarning qadrini unutmasligimiz va doimo ilm talabida umr kechirmog'imiz kerak. Inson hamisha buni tafakkur qilmog'i lozim. Insonning qachon tafakkuri o'tkir bo'ladi? Qachonki, ilm-u ma'rifatga, go'zal tarbiyaga ega bo'lsagina. Bizga sir emaski, yurt tinchligi va ravnaqi hamisha xalqning ilm-u ma'rifatiga chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Modomiki, shunday ekan, yetishib chiqayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga also sustkashlik bilan qarab bo'lmaydi. Bu mas'uliyatli vazifani esa albatta pedagoglar o'z zimmlariga olishadi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek “O'qituvchi va murabbiylar - yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir”.[1] Qaysi soha vakili bo'lmasin, albatta ularga ta'lim tarbiyani pedagog (ustoz)lar berishadi. Agar pedagog o'z kasbining fidoiysi, o'z kasbining har tomonlama yetuk mutaxassisi, hamda kamolga yetgan shaxsi bo'lmas ekan, yetishib chiqayotgan yosh avlodning tanazzuli muqarrardir.

Ilmga osonlik bilan yetishib bo'lmaydi, albatta. Buning uchun ko'p mashaqqat chekmog'imiz, izlanmog'imiz va eng muhimi ilmga mehr-muhabbat qo'ymog'imiz darkor. Ilmga qanday erishamiz? degan savol o'z-o'zidan insonda paydo bo'ladi. Bu savolga javobni ulamolarimizning ilm to'g'risidagi “Sen ilmga butun borlig'ingni bersanggina, ilm senga ba'zisini beradi” degan fikrlaridan topishimiz mumkin. Bu yerdagi “borlig'imiz” so'zining asl ma'nosi “qalb” bo'lsa “ba'zisi” esa bizni saodatga yo'llovchi ilmdir. Ana shu ba'zisi bizni dunyo va oxiratda saodatli qilib qo'yadi.

Bugun har bir bo'lajak pedagoglar o'zining pedagogik mahoratini mustahkam shakllantirishida ilk debocha sifatida Abdulla Avloniy asarlariga yuzlanishlarini joiz deb bilaman. Boisi, Avloniy asarlari pedagogik qarashlar juda yorqin qilib bayon etilgan. Eng muhimi, amalyotga tatbiq etishda juda samarali qilib yozilgan. Bu haqida aynan Abdulla Avloniy ijodiga chuqur yondashgan yana bir pedagogimiz ham quydagi fikrlarni keltirib o'tganlar. “Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o'quvchilar qalbidagi shakllantirishda

axloqiy va ma'naviy barkamol tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda". Shuningdek, Abdulla Avloniy ijodiy merosi bilan ilk darsliklarning mukammal yaratuvchisi sifatida ham gavdalanganligi, asarlaridagi ta'lim va tarbiyaga doir tushunchalarning, g'oyaviy-badiiy mushohadalarning tadqiq qilinganligi, qolaversa, mavzuning dolzarbligi ma'rifatparvar adib, serqirra ijodkor Abdulla Avloniyning ijodida bugungi kunning eng muhim masalasi-ta'lim va tarbiyaga doir fikrlarning dalili hikoyalar, she'riy lavhalar misolida yoxud majoziy xarakterga ega hikoyatlar asosida ochib berilishi asnosida ko'zga tashlanadi.[2]

Abdulla Avloniy maktablar ochib, shaxsan o'zi muallimlik qilish bilan birga maktablarni darsliklar bilan ta'minlash ishiga katta hissa qo'shdi. Bular ichida "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari o'zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi. Abdulla Avloniy mazkur asarni fors klassik shoiri shayx Muslihiddin Sa'diy (1184-1310) ning "Guliston" asaridan ta'sirlanib, unga taqlid qilib yozganligi haqida shunday deydi: "Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg'a g'ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdulillah val minna ikkinchi tab'ihada muvaffaq o'ldum, chunki Turkiston maktablarida o'z shevamizda (o'zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal "Axloq kitobi"ning shunday asarga tashna va muhtoj ekanlig'i o'zum muallimlar jumlasidan o'ldig'imdan manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir ish bo'lsa ham, o'zinga muqaddas bir vazifa ado qilarmoq bu kamchilikni oradan ko'tarmakni munosib ko'rdim". Demak, aytish mumkinki, "Turkiy Guliston yoxud axloq" Sa'diyning "Guliston" asari usulida o'zbek tilida yozilgan axloq kitobidir.

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida tarbiya – "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur.

Axloqimizning binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur, ba'zilar "tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiat o'zgaras", – demishlar. Lekin bu so'z to'g'ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqqa, albatta, ta'siri bo'ladur. Oramizda masal borki, "sut ila kirgan, jon ila chiqar", mana bu so'z to'g'ridur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallolohu alayhi vasallam afandimiz: "Beshikdan to mozorga borguncha ilm o'rgan", – demishlar. Bu hadisi sharifning ma'nosi bizlarga dalildur. Hukamolardan biri: – "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'lidir", – demish. Shariati islomiyada o'z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayn, o'z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadur".

Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, "birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur", – deb o'z fikrlarini go'zal bayon etgan holda, pedagogning o'rni ne'chog'lik muhim ekanligini anglatadilar.

O'z fikrimizni yurtboshimizning "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tish zarur deb bilaman, u ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liq. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun, haqiqatdan ham, yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" [3] degan fikrlari bilan yakun yasaymiz. Zero, to'g'ri berilgan ta'lim-tarbiya millat kelajagining poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. O'qituvchi va murabbiylar - yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi, "Xalq so'zi", 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.
2. ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYA G'OYASINING AKS ETISHI Nasriyeva Zulfiya Isroilovna 2021 / [Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences](#) 320-324 page
3. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. "Xalq so'zi", 2017-yil 4-avgust.
4. [Ziyo istagan qalblar uchun! - Abdulla Avloniy \(1878-1934\) \(ziyouz.com\)](#)